

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№3

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, mart.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TIZIMLASHTIRILGAN TAHDIDLAR.....	40
Qodirov Tuyg'un Uzoqovich, Nabiye Bexzod Shavkatovich	
SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYANING O'RNI	44
Boboqulov Sanjar Bahromqulovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI BAHOLASHNING USLUBIYOTI VA UNING SOLIQ TIZIMIDA QO'LLANILISHI	49
To'xtabayev Oybek Odilovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	56
Ismailov Bobir Salomovich	
TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	62
Yangiboyev F.B.	
MINTAQAVIY IQTISODIY SALOHİYATDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	68
Turayev Og'abek Kaxramonovich	
XORIJIY MAMLAKATLARDA TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH TAJRIBASI.....	75
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	



XORIJIY MAMLAKATLARDA TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH TAJRIBASI

Yusupova Feruza Yo'ldosheva

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada xorijiy mamlakatlarda to'qimachilik klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish tajribasi tahlil qilindi. Tadqiqot doirasida Italiya, Turkiya, Xitoy, Bangladesh va Vyetnam klasterlarining tashkiliy tuzilmasi, boshqaruv mexanizmlari hamda eksport natijalari o'rganildi. Porterning "olmos modeli" asosida klaster raqobatbardoshligini belgilovchi omillar qiyosiy baholandi. Tahlil natijasida klaster yondashuvi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, innovatsiyalarni joriy etish va global qiymat zanjirlariga integratsiyani kuchaytirishda muhim rol o'ynagani aniqlandi. Institutsional qo'llab-quvvatlash, texnologiya transferi va raqamli transformatsiya klaster rivojlanishining asosiy omillari sifatida baholandi. Olingan natijalar rivojlanayotgan mamlakatlarda to'qimachilik klasterlarini samarali tashkil etish uchun amaliy ahamiyat kasb etdi.

Kalit so'zlar: to'qimachilik klasteri, sanoat tumani, raqobatbardoshlik, klaster siyosati, eksport salohiyati, innovatsiya, global qiymat zanjiri.

Abstract. The article analyzed the experience of formation and development of textile clusters in foreign countries. The study examined the organizational structure, management mechanisms, and export performance of clusters in Italy, Turkey, China, Bangladesh, and Vietnam. Based on M. Porter's "diamond model," a comparative assessment of the factors determining cluster competitiveness was conducted. The findings showed that the cluster approach contributed to improving production efficiency, fostering innovation, and strengthening integration into global value chains. Institutional support, technology transfer, and digital transformation were identified as key drivers of cluster development. The conclusions obtained have practical significance for the effective organization of textile clusters in developing countries.

Key words: textile cluster, industrial district, competitiveness, cluster policy, export potential, innovation, global value chain.

Аннотация. В статье проанализирован опыт формирования и развития текстильных кластеров в зарубежных странах. В рамках исследования изучены организационная структура, механизмы управления и экспортные показатели кластеров Италии, Турции, Китая, Бангладеш и Вьетнама. На основе «алмазной модели» М. Портера проведена сравнительная оценка факторов, определяющих конкурентоспособность кластеров. Результаты анализа показали, что кластерный подход способствовал повышению производственной эффективности, внедрению инноваций и углублению интеграции в глобальные цепочки создания стоимости. Институциональная поддержка, трансфер технологий и цифровая трансформация определены как ключевые факторы развития кластеров. Полученные выводы имеют практическое значение для эффективной организации текстильных кластеров в развивающихся странах.

Ключевые слова: текстильный кластер, промышленный район, конкурентоспособность, кластерная политика, экспортный потенциал, инновации, глобальная цепочка стоимости.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida to'qimachilik sanoati sanoat ishlab chiqarishi tarkibida muhim ulushga ega bo'lib, bandlikni ta'minlash, eksport tushumlarini shakllantirish va hududiy rivojlanishni rag'batlantirishda barqaror omil sifatida namoyon bo'ldi. 2024-yilda global to'qimachilik eksporti hajmi 800 milliard AQSH dollaridan oshdi. Xitoy 301 milliard AQSH dollar, Vyetnam 44 milliard AQSH dollar, Bangladesh 38,48 milliard AQSH dollar, Turkiya 35,7 milliard AQSH dollar va Italiya 37,1 milliard AQSH dollar eksport hajmi bilan yetakchi o'rinlarni egalladi. Ushbu ko'rsatkichlar to'qimachilik ishlab chiqarishining hududiy konsentratsiyasi va klaster asosida tashkil etilishi eksport salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etganini tasdiqladi [1].

To'qimachilik sanoati ko'p bosqichli qiymat zanjiriga ega bo'lib, xom ashyo yetishtirish, dastlabki qayta ishlash, gazlama ishlab chiqarish, tikuvchilik va tayyor mahsulotni sotish jarayonlarini qamrab oladi. Ushbu



bosqichlarning bir hududda yoki o'zaro yaqin joylashuvi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, logistika samaradorligini oshirish va korxonalar o'rtasida barqaror kooperatsiya aloqalarini shakllantirish imkonini berdi. Natijada klasterlashuv korxonalar raqobatbardoshligini mustahkamlash, innovatsiyalarni tezroq joriy etish hamda tashqi bozorlarga chiqishni kengaytirishda muhim tashkiliy mexanizmga aylandi.

Turli mamlakatlarda shakllangan to'qimachilik klasterlari sanoat rivojlanishining turli modellarini namoyon etdi. Ayrim hududlarda kichik va o'rta korxonalar o'rtasidagi ixtisoslashgan hamkorlik ustun bo'lsa, boshqa hududlarda vertikal integratsiya yoki davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan yirik sanoat majmualari shakllandi. Bunday tajriba to'qimachilik tarmog'ida klaster yondashuvi universal emasligini, balki mamlakatning iqtisodiy sharoiti, resurs bazasi va institutsional muhitiga mos ravishda rivojlanganini ko'rsatdi.

Mazkur tadqiqot xorijiy mamlakatlar tajribasini tizimli o'rganish va ularni qiyosiy tahlil qilishga qaratildi. Tahlil natijalari to'qimachilik klasterlari eksport barqarorligi, ishlab chiqarish samaradorligi va global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatganini aniqlash imkonini berdi. Olingan xulosalar rivojlanayotgan mamlakatlarda klaster siyosatini takomillashtirish uchun amaliy ahamiyat kasb etdi [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Klaster nazariyasining ilmiy asoslari A. Marshallning 1890-yildagi fundamental ishi bilan bog'liq bo'lib, unda sanoat tumanlarida korxonalarning geografik konsentratsiyasi uch asosiy omil orqali iqtisodiy samara berishi ko'rsatilgan: mehnat bozori effektlari, «kirish-chiqish» o'zaro bog'liqligi va bilimlarning tarqalishi [2]. Marshallning bu g'oyalari keyinchalik M. Porter tomonidan rivojlantirilib, «Millatlarning raqobat ustunligi» asarida tizimli nazariya shakliga keltirildi [3]. Porter klasterini «muayyan sohada o'zaro bog'liq bo'lgan kompaniyalar va institutlarning geografik konsentratsiyasi» deb ta'riflagan [4].

Porter tomonidan ishlab chiqilgan «olmos modeli» (Diamond Model) klaster raqobatbardoshligini belgilovchi to'rtta asosiy omilni ajratadi: omil sharoitlari (factor conditions), talab sharoitlari (demand conditions), tegishli va qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlar (related and supporting industries) hamda firmalarning strategiyasi, tuzilmasi va raqobat muhiti (firm strategy, structure and rivalry) [3]. Bundan tashqari, davlat siyosati va tasodifiy omillar ham modelga qo'shimcha element sifatida kiritilgan. P. Krugman «Geografiya va savdo» asarida iqtisodiy geografiyaning klaster shakllanishidagi rolini alohida ta'kidlagan [5].

Italiya kontekstida G. Becattini Marshallning sanoat tumanlari konsepsiyasini Italiyaning «Uchinchi Italiya» (Third Italy) hududlariga tatbiq etib, kichik va o'rta korxonalar (KO'ChM) tarmog'iga asoslangan ishlab chiqarish modelini nazariy jihatdan asosladi [6]. Prato to'qimachilik tumanining evolyutsiyasi L. Lazzeretti va F. Capone tomonidan tashkiliy ekologiya nuqtayi nazaridan o'rganilgan bo'lib, tadqiqot italyan va xitoy firmalarining koevolyutsiyasini ochib berdi [7]. F. Mazzoni esa Prato klasteridagi sirkular iqtisodiyot va eko-innovatsiya amaliyotlarini tahlil qildi [8].

Turkiyaning to'qimachilik klasterlariga oid ilmiy adabiyotda firma raqobatbardoshligining determinantlari keng o'rganilgan. Turkiya to'qimachilik va tikuvchilik sanoatida faktor tahlili asosida raqobatbardoshlik omillari identifikatsiya qilingan bo'lib [9], tadqiqot natijalari klasterlashuv va sanoat uyushmalari bilan hamkorlikning firma raqobatbardoshligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Xalqaro raqobatbardoshlik indeksleri asosida olib borilgan tahlillar Turkiyaning to'qimachilik va kiyim-kechak tarmoqlarida Balassa indeksi bo'yicha yuqori nisbiy ustunlikka ega ekanligini ko'rsatdi [10].

Xitoyning sanoat klasterlari bo'yicha tadqiqotlar shuni ta'kidlaydiki, 30 yildan ortiq rivojlanish davomida mamlakat to'qimachilik sanoatining qiymat zanjiri bo'ylab yuqori va pastki oqimlarda kuchli pozitsiyalarni shakllantirdi [11]. 2020-yilga kelib Xitoyda Yantszi daryosi deltasi, Marvarid daryosi deltasi, Boxay hududi va Haysi mintaqalarida joylashgan 216 ta to'qimachilik klasteri qayd etilgan [11]. T. Sonobe va K. Otsuka Bangladesh to'qimachilik klasterining shakllanishida xorijiy texnologiya transferining hal qiluvchi rolini nazariy jihatdan asosladilar [12].

O'zbekiston kontekstida S. Ergashxodjaeva va boshqalar M. Porter modeli asosida to'qimachilik va kiyim-kechak sanoatida klasterlashuv imkoniyatlarini baholadilar [13]. To'qimachilik klasterlarini shakllantirish strategiyasi bo'yicha dastlabki tadqiqotlar klaster tashkil etish zaruriyatini nazariy jihatdan asoslagan bo'lib, klaster tarkibiy elementlari o'rtasidagi resurslar o'zaro ta'siriga alohida e'tibor qaratildi [14]. Biroq mavjud adabiyotda turli mamlakatlardagi to'qimachilik klasterlari modellarining qiyosiy nazariy tahlili yetarli darajada amalga oshirilmagan bo'lib, ushbu tadqiqot aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot qiyosiy nazariy tahlil yondashuviga asoslangan holda olib borildi. Tadqiqot obyekti sifatida Italiya, Turkiya, Xitoy, Bangladesh va Vyetnam to'qimachilik klasterlari tanlab olindi. Mamlakatlar global eksportdagi ulushi, klaster modelining xilma-xilligi va rivojlanish bosqichlari mezonlari asosida saralandi. Nazariy asos



sifatida M. Porterning “olmos modeli” qabul qilindi va har bir klaster omil sharoitlari, talab sharoitlari, tegishli tarmoqlar hamda raqobat muhiti kesimida tahlil qilindi.

Ma'lumotlar Jahon banki, sanoat uyushmalari, xalqaro hisobotlar va ochiq statistik manbalardan olindi. Tahlil jarayonida adabiyotlar sharhi, qiyosiy tahlil va tizimlashtirish usullari qo'llanildi. Har bir mamlakat tajribasi alohida o'rganildi va umumiy xulosalar shakllantirildi. Tadqiqot nazariy xususiyatga ega bo'lib, birlamchi empirik ma'lumotlar yig'ilmadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Italiyaning Toskana viloyatida joylashgan Prato shahri Yevropaning eng yirik to'qimachilik markazi hisoblanadi va sanoat tumani (distretto industriale) modelining klassik namunasini tashkil etadi [6]. Prato to'qimachilik tumani 7 000 dan ortiq korxonani o'z ichiga oladi, ulardan 2 000 dan ortig'i bevosita to'qimachilik ishlab chiqarishi bilan shug'ullanadi, yillik eksport hajmi 2 mlrd yevroni tashkil etadi [15]. Bu korxonalarning mutlaq ko'pchiligi kichik va o'rta hajmdagi oilaviy firmalar bo'lib, har biri ishlab chiqarish jarayonining muayyan bosqichiga ixtisoslashgan.

Prato modelining o'ziga xos xususiyati — ishlab chiqarish jarayonining ko'plab mustaqil, ammo o'zaro bog'liq korxonalar o'rtasida taqsimlanganligidir [15]. Namunalar tadqiqoti va dizayni, ishlab chiqarishni tashkil etishi, marketing va tayyor mahsulotni sotish — bu jarayonlarning har biri alohida korxona tomonidan bajariladi, biroq barcha korxonalar yagona katta ustaxona sifatida ishlaydi. Bunday tuzilma yuqori sifat standartlari, qisqa yetkazib berish muddatlari va raqobatbardosh narxlarni ta'minlaydi. Prato tumani yunga gazmollar ishlab chiqarish bo'yicha Italiya eksportining 25 foizini tashkil etadi [16].

Prato klasterining yana bir muhim jihati — sirkular iqtisodiyot (circular economy) an'analari chuqur ildiz otganligidir. XIX asrning o'rtalaridan boshlab Prato qayta ishlangan tolalardan gazmol ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda yetakchi pozitsiyani egallagan [17]. Hozirgi kunda dunyodagi karda jun gazmollar eksportining deyarli yarmi Pratomdan amalga oshiriladi, ularning 80 foizi (yiliga 28 000 tonna) qayta ishlangan tolalardan ishlab chiqariladi [17]. Shu tariqa Prato to'qimachilik tumani sirkular iqtisodiyotning yetakchi namunasidir.

2024-yilda Prato va Toskana viloyati Bryusselda do'imiyl vakolatxona tashkil etish bo'yicha hamkorlik bitimini imzoladilar. Bu bitim Yevropa siyosatiga — eko-dizayn, raqamli mahsulot pasporti va to'qimachilik chiqindilarini boshqarish tartiblariga — bevosita ta'sir ko'rsatish imkonini berdi [17]. Prato klasterida «Net Zero District» loyihasi ham ishga tushirilgan bo'lib, u Yevropa Ittifoqining «Shaharlar missiyasi» dasturi doirasida amalga oshirilmoqda [17].

Turkiya jahonning oltinchi yirik to'qimachilik va to'rtinchi yirik kiyim-kechak eksportchisidir [9]. 2024-yilda mamlakat to'qimachilik eksporti 35,7 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi [1]. Turkiya to'qimachilik sanoati 7 500 dan ortiq ishlab chiqaruvchini birlashtiradi va asosan Istanbul, Izmir, Bursa, Denizli, Gaziantep va Kahramanmaraş shaharlarida klasterlashgan [9]. Istanbul shahri va uning atrofidagi hududlar sanoatning bosh markazi bo'lib, Bursa trikotaj va ip-gazlama, Denizli uy-ro'zg'or to'qimachiligi, Gaziantep esa gilamchilik bo'yicha ixtisoslashgan.

Turkiya modelining asosiy xususiyati — vertikal integratsiya va geografik tarqalganlikdir [9]. Yigiruv, to'quv, bo'yash va kiyim tikishning barcha bosqichlari bitta mamlakatda, ko'pincha bitta klaster ichida amalga oshiriladi, bu esa yetkazib berish zanjirining koordinatsiyasini osonlashtiradi va yetkazib berish muddatlarini minimallashtiradi. Turkiya ishlab chiqaruvchilari odatda uch-to'rt hafta, ba'zan esa o'n kungacha qisqa muddatlarda buyurtmalarni bajarishga qodir [18]. Bu Yevropa bozorlarining tez moda (fast fashion) talablariga javob berishda muhim ustunlik hisoblanadi.

Porterning «olmos modeli» kontekstida Turkiyaning raqobat ustunliklari quyidagilardan iborat: (1) omil sharoitlari — yiliga 450-500 ming tonna paxta ishlab chiqarish, sintetik tola ishlab chiqarishning rivojlanganligi, malakali ishchi kuchi [9]; (2) talab sharoitlari — katta ichki bozor va Yevropa bozoriga yaqinlik; (3) tegishli tarmoqlar — to'qimachilik mashina-sozlik, kimyo sanoati, logistika infratuzilmasi; (4) raqobat muhiti — sanoat ichidagi kuchli raqobat korxonalarni doimiy innovatsiyaga undaydi [10].

Turkiya to'qimachilik sanoatining transformatsiyasi ham diqqatga sazovordir: mehnat xarajatlarning oshishi sababli mamlakat arzon mahsulotlar segmentidan yuqori sifatli va qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish tomon siljigan [19]. Bugungi kunda Turkiya firmalarining bir qismi Adidas, Hugo Boss, Nike kabi global brendlar uchun ishlab chiqaradi [19], bu esa klasterning global qiymat zanjiridagi pozitsiyasining mustahkamlanganligidan dalolat beradi.

Xitoy dunyoning eng yirik to'qimachilik eksportchisi bo'lib, 2024-yilda eksport hajmi 301 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi [1]. Mamlakatda to'qimachilik ishlab chiqarishning 70 foizdan ortig'i uchta qirg'oq viloyati — Chjeczuyan, Czyansu va Guangdongda hamda ikkita daryo deltasi — Marvarid va Yantszi deltalarida joylashgan [20]. Xitoy Milliy to'qimachilik va kiyim-kechak kengashi (CNTAC) ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilga kelib mamlakatda 216 ta to'qimachilik klasteri qayd etilgan [11].



Shaosinn shahrining Keqiao tumani Xitoy to'qimachilik sanoatining eng yorqin klasteri hisoblanadi. Bu yerda joylashgan «Xitoy to'qimachilik shahri» (China Textile City — CTC) sayyoradagi eng to'liq sanoat zanjiriga ega to'qimachilik markaziga aylangan bo'lib, uning yillik tranzaksiya hajmi 2023-yilda 360 mlrd yuan (taxminan 51 mlrd AQSH dollari) ni tashkil etdi [21]. Keqiaoda 8 000 dan ortiq to'qimachilik korxonasi va 250 dan ortiq yuqori texnologiyali kompaniya faoliyat yuritadi, 27 000 nafar ilmiy-tadqiqot xodimi jalb etilgan hamda 20 dan ortiq tadqiqot instituti tashkil etilgan [21].

Xitoy klaster modelining o'ziga xos jihati — davlat qo'llab-quvvatlashining tizimli xarakteridir [22]. Mahalliy hukumatlar dastlabki bosqichda kompaniyalardagi aksiyadorlik orqali faol ishtirok etgan bo'lsa, keyinchalik ko'proq savdo ko'rgazmalari tashkil etish, mahalliy rivojlanishni muvofiqlashtirish va infratuzilma yaratish funksiyalarini bajarmoqda [22]. Guangdong viloyatida Marvarid daryosi deltasidagi 404 ta qishloq-tumanlarning chorak qismi klaster xususiyatiga ega ixtisoslashgan «professional shaharlar» hisoblanadi [20].

Raqamli transformatsiya Xitoy to'qimachilik klasterlarining rivojlanishida muhim trend bo'lib, Keqiao tumanida nano-siyoh texnologiyasi va sun'iy intellektga asoslangan ishlab chiqarish tizimlari joriy etilmoqda [21]. 2023-yilning noyabr oyida e'lon qilingan rivojlanish rejasiga ko'ra, 2025-yilga kelib Keqiaodagi yetakchi to'qimachilik firmalarida ilmiy-tadqiqot xarajatlari operatsion daromadning 1,5 foizini tashkil etishi, ikkita milliy innovatsion platforma tashkil etilishi mo'ljallangan [21].

Bangladesh dunyoning ikkinchi yirik kiyim-kechak eksportchisi bo'lib, 2024-yilda tayyor kiyim-kechak (RMG) sektori 38,48 mlrd AQSH dollari eksport tushumi keltirdi, bunda trikotaj mahsulotlari 20,52 mlrd va to'qilgan kiyimlar 17,95 mlrd dollarni tashkil etdi [23]. Bangladesh tikuvchilik va tikuvchilik assotsiatsiyasi (BGMEA) ta'sischi a'zosi bo'lgan 4 500 dan ortiq fabrika mamlakat bo'ylab faoliyat yuritadi [24]. Sektorda 4 milliondan ortiq ishchi band bo'lib, ularning 55 foizi ayollardan iborat [24].

Bangladesh to'qimachilik klasterining genezisi 1978-yilga borib taqaladi, o'sha paytda mahalliy Desh Garments Ltd kompaniyasi Janubiy Koreyaning Daewoo korporatsiyasi bilan hamkorlik bitimini imzolagan [25]. Koreya kompaniyalari o'sib borayotgan mehnat xarajatlari sababli ishlab chiqarishni ko'chirish imkoniyatini qidirayotgan edi, Bangladesh esa arzon ishchi kuchi va qulay investitsiya muhitini taklif etdi. 1983-84-yillarda kiyim-kechak umumiy eksportning 4 foizidan kamini tashkil etgan bo'lsa, o'n yil ichida bu ko'rsatkich 60 foizga, 2022-23-yillarda esa 84 foizga yetdi [25].

Bangladesh klasterining muhim yutug'i — barqaror rivojlanish sohasidagi yutuqlardir. Mamlakat dunyoda eng ko'p «yashil» kiyim-kechak fabrikalariga ega bo'lib, 230 dan ortiq LEED-sertifikatlangan ishlab chiqarish obyekti mavjud [23]. Bu Porterning «olmos modeli» nuqtayi nazaridan omil sharoitlarining sifat jihatidan takomillashganligini ko'rsatadi. 2024-2027-yillar uchun qabul qilingan Milliy eksport siyosati eksport daromadlarini yiliga 110 mlrd dollargacha ko'paytirishni ko'zda tutmoqda [24].

Biroq Bangladesh klasterining zaif tomonlari ham mavjud. 2024-yilda siyosiy beqarorlik, tabiiy ofatlar va energiya inqirozi sanoatga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatdi [24]. Suyultirilgan tabiiy gaz tanqisligi ko'plab fabrikalarning 30 foizdan kam quvvat bilan ishlashiga olib keldi, buning natijasida AQSH, Germaniya va Buyuk Britaniyadan kelayotgan xaridorlarning bir qismi buyurtmalarini Vyetnam, Hindiston va Shri-Lankaga ko'chirdi [24]. Bu xatarlarni diversifikatsiya qilish zaruratini ko'rsatadi.

Vyetnam to'qimachilik eksportida barqaror o'sish tendentsiyasini namoyish etmoqda: 2024-yilda mamlakat eksport hajmi 44 mlrd AQSH dollariga yetdi [1]. Vyetnamning muvaffaqiyati ko'p jihatdan erkin savdo bitimlariga, qisqa yetkazib berish muddatlariga va ekologik jihatdan toza fabrikalar sonining o'sishiga bog'liq [1]. Janubiy Koreya esa texnologiya transferi modelining klassik namunasidir — 1970-80-yillarda Koreya kompaniyalari o'z to'qimachilik tajribasini Bangladesh, Vyetnam va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarga eksport qildilar [25].

T. Sonobe va K. Otsuka tadqiqotlari ko'rsatganidek, Bangladesh to'qimachilik klasterining dastlabki shakllanishida Janubiy Koreyadan olingan texnologik va boshqaruv bilimlarining transferi hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi [12]. Yangi yollangan ishchilar intensiv o'qitish uchun Koreyaga yuborilgan, qaytib kelganlarida esa ishlab chiqarish samaradorligi sezilarli oshgan. Bu tajriba shuni ko'rsatadiki, texnologiya transferi klaster rivojlanishining ilk bosqichida eng muhim omillardan biri bo'lib, u mahsulot sifatini yaxshilash, ishlab chiqarish usullarini takomillashtirish va marketing innovatsiyalarini o'z ichiga oladi.

Vyetnam klasterining yana bir muhim xususiyati — erkin savdo zonalaridan (Free Trade Zones — FTZ) strategik foydalanishdir. Mamlakat CPTPP (Comprehensive and Progressive Agreement for Trans-Pacific Partnership), EVFTA (EU-Vietnam Free Trade Agreement) va RCEP kabi ko'plab erkin savdo bitimlari ishtirokchisi bo'lib, bu bitimlar to'qimachilik eksportiga bo'xona to'siqlarini sezilarli kamaytirdi [1]. Vyetnam hukumati sanoat zonolari va klasterlarda investorlar uchun soliq imtiyozlari, infratuzilma ta'minotlari va boshqa rag'batlantirishlarni amalga oshirmoqda.

Janubiy Koreyaning o'z tajribasi ham tahlilga loyiq. 1970-yillarda Koreya global to'qimachilik eksportchilarining ilk qatorida turgan bo'lsa, mehnat xarajatlarning o'sishi va iqtisodiy transformatsiya natijasida mamlakat ishlab chiqarishni past xarajatli mamlakatlarga ko'chirdi va o'zi texnologik yetakchilik, brend boshqaruvi va dizayn sohasiga o'tdi [12]. Koreya firmalarining Bangladesh, Vyetnam va Kambojadagi investitsiyalari global qiymat



zanjirlarida texnologiya transferi va bilim almashinuvining samarali modelini shakllantirdi. Bu jarayon Porterning nazariyasidagi tegishli va qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlar determinantining xalqaro o'lchamini ko'rsatadi.

O'rganilgan mamlakatlar to'qimachilik klasterlarining eksport salohiyatini baholash maqsadida 2-jadvalda 2023-2024-yillardagi asosiy eksport ko'rsatkichlari jamlanadi. Ushbu ma'lumotlar Kohan Textile Journal [1], BGMEA [23] va boshqa ochiq manbalardan olingan (2-jadval).

2-jadval. Asosiy to'qimachilik eksportchi mamlakatlarning eksport ko'rsatkichlari (2023-2024)¹

Mamlakat	Eksport 2023 (mlrd AQSH dollar)	Eksport 2024 (mlrd AQSH dollar)	O'sish, foizda	Asosiy bozorlar
Xitoy	260,8	301,0	15,4	AQSH, Yel, Yaponiya
Vyetnam	39,0	44,0	12,8	AQSH, Yaponiya, JK
Bangladesh	48,9	38,48	-21,3	AQSH, Germaniya, BB
Turkiya	33,5	35,7	6,6	Germaniya, BB, Italiya
Italiya	37,1	37,1	—	Frantsiya, Germaniya, Xitoy

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Xitoy to'qimachilik eksportida mutlaq yetakchilikni saqlab qolmoqda va 2024-yilda eksport hajmini 15,4 foizga oshirdi. Vyetnam ham barqaror o'sishni namoyish etdi (12,8 foiz). Bangladesh uchun 2024-yil qiyin bo'ldi - siyosiy beqarorlik va energiya tanqisligi sababli eksport 21,3 foizga kamaydi [24]. Turkiya o'rtacha o'sish sur'atini saqlab qoldi (6,6 foiz), bu mamlakat eksport bazasining diversifikatsiyalanganligi va Yevropa bozoriga barqaror kirib borishidan dalolat beradi.

Ushbu raqamlar to'qimachilik klasterlarining eksport natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Xitoyning 216 ta klasterdan iborat keng tarmog'i, Turkiyaning vertikal integratsiyalangan ishlab chiqarish tizimi va Vyetnamning erkin savdo bitimlaridan strategik foydalanishi — bular eksport muvaffaqiyatining asosiy klaster omillaridir. Bangladesh tajribasi esa tashqi omillarga (siyosiy barqarorlik, energiya ta'minoti) nisbatan klasterning zaifligini ko'rsatadi, bu esa klaster barqarorligini (resilience) mustahkamlash zaruriyatiga ishora qiladi.


To'qimachilik klasterlarining samarali faoliyati nafaqat ishlab chiqarish quvvatlariga, balki institutsional tuzilmaning mukammalligiga ham bog'liq. Italiyaning Prato tumanida klaster boshqaruvining asosiy vositalari sanoat uyushmalari, savdo-sanoat palatalari va ixtisoslashgan tadqiqot markazlari hisoblanadi. OTIR 2020 (Toskana innovatsion va tadqiqot ustaxonasi) moda sohasida innovatsiyalar va ilmiy-tadqiqot ishlari uchun yetakchi markaz sifatida faoliyat yuritadi [15]. Progetto Acqua konsortsiumi 200 dan ortiq korxonani birlashtirgan holda suv resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha kollektiv infratuzilma investitsiyalarini amalga oshirmoqda [17].

Turkiyada sanoat uyushmalari klaster rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Turkiya kiyim-kechak ishlab chiqaruvchilari assotsiatsiyasi va mintaqaviy to'qimachilik eksport uyushmalari firmalar o'rtasidagi muvofiqlashtirish, ma'lumot almashish va global bozorlarga chiqishni qo'llab-quvvatlash funksiyalarini bajaradi [9]. Klaster ichidagi firmalarning siyosatchilar va davlat xodimlari bilan yaqin munosabatlari firma raqobatbardoshligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi tadqiqotlarda tasdiqlangan [9].

Xitoyda CNTAC (Xitoy Milliy to'qimachilik va kiyim-kechak kengashi) sanoat modernizatsiyasi yo'nalishida ko'rsatmalar ishlab chiqish, o'z-o'zini tartibga solish tizimini yaxshilash va sanoat manfaatlarini himoya qilish funksiyalarini bajaradi [20]. Mahalliy darajada hukumatlar klaster rivojlanishini savdo ko'rgazmalari tashkil etish, infratuzilma yaratish va innovatsion platformalar qurish orqali rag'batlantirmoqda [22]. Keqiao tumanida 20 dan ortiq tadqiqot institutining tashkil etilishi va 27 000 nafar tadqiqotchining jalb etilishi klasterning institutsional salohiyatining yuqoriligidan dalolat beradi [21].

Bangladesh klasterida BGMEA asosiy koordinatsiyalovchi tashkilot sifatida faoliyat yuritadi. Ushbu assotsiatsiya 4 500 dan ortiq a'zo fabrikani birlashtiradi va eksport bo'yicha ma'lumot tayyorlash, xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etish va ishchi kuchi malakasini oshirish dasturlarini amalga oshiradi [23, 24]. 2024-yildagi siyosiy o'zgarishlardan so'ng BGMEA rahbariyati qayta tashkil etildi va mehnat islohotlari komissiyasi tashkil etildi, bu klaster boshqaruvining tashqi omillarga sezgiriligini ko'rsatadi (1-rasm) [24].

¹ Manba: Kohan Textile Journal [1], BGMEA [23], Bangladesh Textile Journal [24]. Italiya uchun 2024 ma'lumoti.

1-rasm. Xorijiy mamlakatlarda to'qimachilik klasterlari rivojlanish modellari²

O'rganilgan beshta mamlakat klaster tajribasining qiyosiy tahlili Porterning «olmos modeli» determinantlari kontekstida muhim farqlar va umumiy qonuniyatlarni ochib berdi. 1-jadvalda ushbu qiyoslashning natijalari jamlangan (1-jadval).

1-jadval. To'qimachilik klasterlarining Porterning «olmos modeli» bo'yicha qiyosiy tahlili³

Omillar	Italiya	Turkiya	Xitoy	Bangladesh	Vyetnam
Omil sharoitlari	KO'ChM tarmog'i, sirkular tajriba	Paxta, sintetik tola, malakali kadr	Mega quvvat, infratuzilma	Arzon ishchi kuchi, demografik salohiyat	Erkin savdo, yosh ishchi kuchi
Talab sharoitlari	Lyuks segment, Yevropa bozori	Yevropa bozori, ichki bozor	Katta ichki va tashqi bozor	Global tez moda brend buyurtmalari	AQSH, Yaponiya, JK bozorlari
Tegishli tarmoqlar	Dizayn, kimyo, mashina-sozlik	Mashina-sozlik, logistika, kimyo	IT, mashina-sozlik, logistika	Trikotaj, bo'yash, aksessuar	Trikotaj, sport kiyim
Raqobat muhiti	Ko'p sonli KO'ChM raqobati	7500+ firma raqobati	216 klaster raqobati	4500+ fabrika raqobati	FTZ orqali jalb
Davlat roli	Mintaqaviy siyosat	Savdo bitimlari, bojxona ittifoqi	Tizimli klaster siyosati	Eksport rag'bat, soliq imtiyozlari	Erkin savdo zonolari
Model turi	Sanoat tumani	Eksportga yo'naltirilgan	Davlat qo'llab-quvvatlash	Arzon ishchi kuchi	Texnologiya transferi, FTZ

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, klaster rivojlanishining muvaffaqiyatli modeli mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasi, tabiiy va insoniy resurslarning mavjudligi hamda davlat siyosatining yo'nalishiga qarab sezilarli farq qiladi. Italiyaning Prato modeli tarixiy an'analar va KO'ChMlarning nozik ixtisoslashuvi asosida shakllangan bo'lsa, Xitoy modeli davlat qo'llab-quvvatlashining tizimli xarakteri va masshtabli infratuzilma investitsiyalari bilan ajralib turadi. Turkiya modeli esa geografik ustunlikni vertikal integratsiya bilan uyg'unlashtirgan holda Yevropa bozoriga tez javob berish qobiliyatini shakllantirgan.

Barcha o'rganilgan klasterlarda uchta umumiy qonuniyat aniqlandi. Birinchidan, geografik yaqinlik qiymat zanjiri ishtirokchilari o'rtasidagi tranzaksion xarajatlarni kamaytirib, bilimlar almashinuvi va innovatsion jarayonlarni tezlashtiradi — bu Porter nazariyasining markaziy g'oyasi bilan to'liq mos keladi [4]. Ikkinchidan, davlat siyosati klaster rivojlanishining har bir bosqichida muhim, ammo har xil shaklda namoyon bo'ladi: Xitoyda bevosita qo'llab-quvvatlash, Italiyada mintaqaviy siyosat, Turkiyada savdo bitimlari orqali. Uchinchidan, global qiymat zanjirlariga integratsiya barcha klasterlarning strategik maqsadi bo'lib, integratsiya shakli va chuqurligi mamlakat rivojlanish darajasiga qarab farq qiladi.

2 Manba: Kohan Textile Journal [1], BGMEA [23], CNTAC [11], Citta di Prato [15], Ergashxodjaeva et al. [13] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

3 Manbalar asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Klaster evolyutsiyasi nuqtayi nazaridan o'rganilgan modellar turli bosqichlarda turadi. Italiyaning Prato tumani yetuk klaster bo'lib, hozirda transformatsiya bosqichidan o'tmoqda — an'anaviy to'qimachilikdan sirkular iqtisodiyot va raqamli texnologiyalarga o'tish jarayoni kechmoqda [17]. Turkiya klasteri barqaror o'sish bosqichida bo'lib, eksport bazasini diversifikatsiya qilish va qo'shimcha qiymatni oshirish yo'nalishida ishlaydi [10]. Xitoy mega-klasterlari global miqyosda yetakchilik bosqichiga chiqqan bo'lib, endi o'z ishlab chiqarish quvvatlarining bir qismini tashqariga ko'chirish va ichki bozorda texnologik modernizatsiyani amalga oshirish jarayonida turibdi [11].

Bangladesh klasteri intensiv o'sish va tizimli transformatsiya bosqichida turibdi — LEED-sertifikatsiya, raqamli texnologiyalar joriy etish va qiymat zanjirida yuqoriga siljish orqali sifat jihatidan o'sish strategiyasini amalga oshirmoqda [23]. Vietnam esa jadal integratsiya bosqichida bo'lib, erkin savdo bitimlari va xorijiy investitsiyalar orqali global to'qimachilik tizimida o'z pozitsiyasini mustahkamlayapti [1].

Muhim nazariy xulosa shundan iboratki, klaster rivojlanishining universal modeli mavjud emas. Har bir mamlakat o'zining tarixiy, iqtisodiy va institutsional kontekstiga mos keladigan model ishlab chiqadi. Biroq barcha muvaffaqiyatli modellarning umumiy xususiyati — klaster tarkibiy qismlarining o'zaro sinergiyasi, ya'ni ishlab chiqarish, tadqiqot, o'qitish va marketing funksiyalarining bir-birini to'ldirib, yagona tizim sifatida ishlashidir. Porterning iborasi bilan aytganda, klaster — bu o'zaro bog'liq qismlarning oddiy yig'indisidan kattaroq yaxlit tizimdir [4].

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan qiyosiy tahlil xorijiy mamlakatlarda to'qimachilik klasterlari sanoat raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaganini ko'rsatdi. Italiya, Turkiya, Xitoy, Bangladesh va Vietnam tajribasi klaster modeli mamlakatning tarixiy shakllanishi, resurs bazasi va institutsional tizimiga mos ravishda rivojlanganini tasdiqladi. Prato sanoat tumani kichik va o'rta korxonalar ixtisoslashuvi asosida shakllangan bo'lsa, Turkiya vertikal integratsiya va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish tizimini rivojlantirgan. Xitoyda klasterlar infratuzilma va davlat qo'llab-quvvatlashi orqali kengaygan. Bangladesh va Vietnamda esa texnologiya transferi va tashqi bozorlar bilan integratsiya asosiy omil bo'lgan.

Tahlil Porterning "olmos modeli" klaster raqobatbardoshligini baholashda amaliy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Omil sharoitlari, talab omillari, tegishli tarmoqlar va raqobat muhiti o'zaro bog'liq holda klaster samaradorligini belgilagan. Innovatsiya va texnologik modernizatsiya barcha muvaffaqiyatli modellarning umumiy xususiyati sifatida namoyon bo'lgan. Raqamli texnologiyalar, qayta ishlash tizimlari va ekologik standartlar joriy etilishi eksport natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Institutsional muvofiqlashtirish ham klaster barqarorligini ta'minlagan. Sanoat uyushmalari, tadqiqot markazlari va davlat organlari o'rtasidagi hamkorlik ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va innovatsion jarayonlarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qilgan.

Olingan natijalar asosida rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bir nechta yo'nalishlar tavsiya etildi. Klaster siyosatini ishlab chiqishda milliy raqobat ustunliklarini aniqlash va vertikal integratsiyani kuchaytirish maqsadga muvofiq. Qayta ishlash va sirkular iqtisodiyot elementlarini joriy etish resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Texnologiya transferi va xalqaro hamkorlik dasturlari ishlab chiqarish salohiyatini oshiradi. Raqamli transformatsiyani jadallashtirish, jumladan, raqamli mahsulot pasporti va sanoat 4.0 yechimlarini qo'llash klasterlarning global bozordagi pozitsiyasini mustahkamlaydi. Klaster boshqaruvida davlat, biznes va ilmiy muassasalar o'rtasidagi hamkorlikni tizimli yo'lga qo'yish barqaror rivojlanish uchun zarur shart hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Top Textile Countries 2025 – Global Leaders Textile Industry // Kohan Textile Journal. – 2025. <https://kohantextilejournal.com/top-textile-countries-global-leaders-textile-industry/>
2. Marshall A. Principles of Economics. – London: Macmillan, 1890.
3. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: The Free Press, 1990.
4. Porter M.E. Clusters and the New Economics of Competition // Harvard Business Review. – 1998. – Vol. 76, No. 6. – P. 77–90. <https://hbr.org/1998/11/clusters-and-the-new-economics-of-competition>
5. Krugman P. Geography and Trade. – Cambridge: MIT Press, 1991.
6. Becattini G. The Caterpillar and the Butterfly. An Exemplary Case of Development in the Italy of the Industrial Districts. – Firenze: Felice Le Monnier, 2001.
7. Lazzeretti L., Capone F. The transformation of the Prato industrial district: an organisational ecology analysis // The Annals of Regional Science. – 2017. – Vol. 58(1). – P. 135–158. <https://link.springer.com/article/10.1007/s00168-016-0790-5>
8. Mazzoni F. Circular economy and eco-innovation in Italian industrial clusters. Best practices from Prato textile cluster // Insights into Regional Development. – 2020. – Vol. 2(3). – P. 661–676. <https://ideas.repec.org/a/ssi/jouird/v2y2020i3p661-676.html>



9. Ozturk A. et al. Determinants of competitiveness in the Turkish textile and apparel industry // MPRA Paper. – 2011. – No. 46974. https://mpra.ub.uni-muenchen.de/46974/1/MPRA_paper_46974.pdf
10. Eraslan I.H. International Competitiveness in Turkish Textile and Clothing Sector // ResearchGate. – 2018. https://www.researchgate.net/publication/327975166_INTERNATIONAL_COMPETITIVENESS_IN_TURKISH_TEXTILE_AND_CLOTHING_SECTOR
11. China's Textiles and Apparel — Expanding Production Bases Overseas While Moving Up the Industry Chain // Springer Nature. – 2024. https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-981-97-1647-0_17
12. Sonobe T. Emergence and Subsequent Development of Garment Clusters in Bangladesh and Tanzania // In: Industrial Districts in History and the Developing World. Springer. – 2016. https://link.springer.com/cha/pter/10.1007/978-981-10-0182-6_5
13. Ergashxodjaeva S.J., Krivyakin K.S., Tursunov B.O., Ahmadovich H.Z. Evaluation of Textile and Clothing Industry Clustering Capabilities in Uzbekistan: Based on Model of M.Porter // Int J Econ Manag Sci. – 2018. – 7:493. <https://www.hilarispublisher.com/open-access/method-of-evaluation-of-the-classification-possibilities-imply-with-the-model-of-m-porter-in-a-competitive-environment-created-in-2162-6359-1000493.pdf>
14. Uzbekistan: Forming a cluster strategy for textile industry development // Perspectives of Innovations, Economics & Business. – 2010. – Vol. 4(1). https://www.researchgate.net/publication/41390454_Uzbekistan_Forming_a_cluster_strategy_for_textile_industry_development
15. Discover the textile district of Prato, the largest in Europe // Città di Prato. – 2024. <https://www.cittadiprato.it/EN/Sezioni/437/TEXTILE-DISTRICT/>
16. Dei Ottati G. An Industrial District Facing the Challenges of Globalization: Prato Today // European Planning Studies. – 2009. – Vol. 17(12). <https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/09654310903322322>
17. (Re)made in Italy – How a centuries-old industrial district is becoming a model for Europe's circular economy // NetZeroCities. – 2025. <https://netzerocities.eu/2025/07/17/remade-in-italy-how-a-centuries-old-industrial-district-is-becoming-a-model-for-europes-circular-economy/>
18. Apparel GVC Analysis: Bangladesh, Sri Lanka and Turkey // World Bank Documents. – 2019. <https://documents1.worldbank.org/curated/en/370641565173133277/pdf/Apparel-GVC-Analysis-Bangladesh-Sri-Lanka-and-Turkey.pdf>
19. Turkey's Textile Industry // Study.com. – 2024. <https://study.com/academy/lesson/turkeys-textile-industry.html>
20. China's Industry Clusters — A Comprehensive Overview // InduQin. – 2024. <https://www.induqin.com/post/china-s-industry-clusters-a-comprehensive-overview>
21. Letter from China: China's textile capital weaves more vibrant future // Xinhua. – 2024. <https://english.news.cn/20240409/d63583bb98894fb9b2098f7c9e228a03/c.html>
22. Rising Giants: Industrial Clusters Are Changing the Face of Chinese Manufacturing // Knowledge at Wharton. – 2009. <https://knowledge.wharton.upenn.edu/article/rising-giants-industrial-clusters-are-changing-the-face-of-chinese-manufacturing/>
23. Textiles & Apparels // Bangladesh Investment Development Authority (BIDA). – 2024. <https://www.bida.gov.bd/investment-sector/textiles-apparels>
24. 2024 Textile Industry Review of Bangladesh // Bangladesh Textile Journal. – 2024. <https://bangladesh textilejournal.com/2024-textile-industry-review-of-bangladesh/>
25. How Bangladesh offers lessons for sustainable industrialization in Africa // World Economic Forum. – 2024. <https://www.weforum.org/stories/2024/02/how-bangladesh-offers-lessons-for-sustainable-industrialization-in-africa/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>